

INGLIZ ADABIYOTIDA VIKTORIAN ROMAN
JORJ ELIOT MISOLIDA

Xulkar Muxammedova Eliboyevna

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Falsafa doktori, PhD, dotsent*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz adabiyoti tarixida yirik davrni o‘zida aks ettirgan viktorian davrida shakllangan viktorian roman janri tipi tahlil etilgan. Viktorian davri bevosita qirolicha Viktoriya nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur davrda yashagan Jorj Eliot viktorian roman xususiyatlarini keng ochib berishga harakat qildi.*

***Kalit so‘zlar:** Viktorian davr, adabiyot, ayollar, viktorian, roman, xususiyat, asar.*

XIX asr Angliya tarixida ro‘y bergan ijtimoiy jarayonlar bevosita adabiyotga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Mana shu davrda ijod qilgan aib Charlz Dikens ijtimoiy roman janriga asos solgan bo‘lsa, davr an‘analari ijtimoiy romanni boyitib viktorian roman nomini oldi. Angliya qirolichasi bo‘lgan Viktoriya (1837-1901) nafaqat davr balki roman tipida ham uning ismi aks etdi. Viktorian roman xususiyatlarini o‘z ijodida keng talqin qilgan adibalardan biri shubhasiz Jorj Eliot bo‘ldi.

XIX asr qirollik oilasining hayot tarzi ingliz jamiyatida oila kultini shakllantirishga asos bo‘ldi. Oila kultini asos qilib olgan viktorian ijodkorlar romanda keng talqin qilishga harakat qilishdi. Bunday ayol yozuvchilardan biri Jorj Eliotdir. Jorj Eliot asl ismi Meri Enn Evans (1819-1880) viktorian davrining uchinchi bosqichida o‘z asarlari bilan adabiyotga kirib keldi. Bo‘lajak adiba dastlab Shtrausning “Iso Masih hayoti”, Feyerbaxning “Xristianlik e‘tiqodi” va Spinozaning “Siyosiy-geologik traktati” asarlarini ingliz tiliga tarjima qildi. Keyinchalik Meri “Vestminster shahri” jurnalida adabiy-tanqidiy maqolalar bilan faol qatnasha boshladi va faylasuf olim Jorj Xenri Lyuis bilan tanishdi. Meri Ivansning ilk ijodi 1857-yilda “Blekvudz Megezin” jurnalida “Dindorlar hayotidan lavhalar” (Scenes of Clerical Life, 1858) asari Jorj Eliot taxallusi nomi bilan chop etiladi. Ommaning ushbu asarga jidiy yondashishini istagan Meri erkaklarga xos bo‘lgan Jorj Eliot taxallusini tanlaydi. Asar kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Adibaning zamondoshlaridan biri bo‘lgan Charlz Dikens mazkur “Eliot” taxallusida ayol yashirin ekanini juda tez payqaydi.

Uning ijodini adabiyotshunos olimlar ikki guruhga ajratishadi. Birinchisi adibaning ilk asarlari bo‘lib bu 1850-1860-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda J.Eliot o‘zining “Dindorlar hayotidan lavhalar” (Scenes of Clerical Life, 1858), “Adam Bede” (1859), “Saylas Marner” (Silas Marner, 1861) romanlarini yozadi. Adiba ijodining ikkinchi davri 1862-1880-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrida u “Romola” (Romola 1863), “Radikal Feliks Xolt” (Felix Holt, the Radical, 1866), “Middlmarch”

(Middlmarch 1872) va “Deniel Deronda” (Deniel Deronda 1878) romanlarini yaratdi. Eliotning birinchi davrida yaratgan romanlarida asosan qishloq hayoti voqealari tasvirlanadi. Uning qahramonlari oddiy kishilar: temirchi Adam Bid, to‘quvchi Saylas Marner, mayda fermerlar. Qishloq ruhoniylari va boshqa kasbga mansub kishilardir. Yozuvchi tabiatan sodda, xaqqo‘y va sahiy bu odamlarning kamsuqum hayotini real tasvirlashga harakat qiladi. Ular orasidan asariga ijobiy qahramonlar izlaydi. O‘z asarlarida dastlab ona qishlog‘i bo‘lgan Vorkshirda yuz bergan voqealarni tasvirlashdan boshlanadi. Ilk ijodi namunalari bo‘lgan “Saylas Marner” asarida Reyvlo qishlog‘ida yashagan to‘quvchi Saylas Marner hayoti hikoya qilinadi. Bo‘z to‘quvchisi bo‘lgan Saylas Marner faqat boylikka sig‘inardi. Kunduzni kunduz, kechani kecha demay tinmay bo‘z to‘qib topgan pulini kunlardan bir kun o‘g‘irlab ketishadi. Mana shu o‘g‘irlik Saylas Marnerga hayotda boylik abadiy emasligini ko‘rsatadi. Sovuq qish kechasida eshigi tagiga tashlab ketilgan kichkina qizchani ko‘rib Saylas o‘z aqidasi unutadi. Qizchani asrab olib yolg‘iz o‘zi tarbiya qila boshlaydi. Qizchaga Eppi deya ism beradi. Mana shu qizaloq tom ma’nodan Saylas Marnerning hayotga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirib yuboradi. Eppi kichikligidan otasini qattiq mehnat qilishiga guvoh bo‘ladi. Otasiga yordam berishga intilar, uyni supurib sidirar, ovqat tayyorlar va kezi kelganida otasining to‘quv dastgohi oldida jimgina kuzatib o‘tirardi. Saylas esa o‘ziga o‘zi shunday derdi: *“One day the door was open and my gold vanished, another day the door was open and the child came. I don’t know where the child came from or where the gold went. It is all very strange fate - Taqdirni g‘alatiligini qara, ,bir kuni eshigim ochilib tillalarim yo‘qoldi, boshqa kuni esa yana eshigim ochilib bola kirib keldi. Tillalarim qayerga ketganini va bola qayerdan kelganligini esa bilmayman”* [Eliot G. 1:46]. Asarning bosh obrazi bo‘lgan Saylasning bunday xitob qilishi taqdirning g‘alatiligi, unga yuborilgan bolani qabul qilsa to‘g‘ri bo‘lishini ko‘rsatadi. Garchand yolg‘iz yashasada u hech qachon yolg‘ilikdan aziyat chekmagandi. U faqat boylikka ruju qo‘ygancha yashardi. Boylikni yo‘qotgach uning o‘rniga hayotiga kirib kelgan bolani to‘g‘ri qabul qildi. Qizchaning oltinday tovlanib turuvchi sochlari, beg‘ubor moviy ko‘zlari Saylasga boylikdan ham ustun bo‘la oladigan jihatni anglashiga sabab bo‘ladi. Jorj Eliotning hayotni jonli tasvirlash uslubi, bosh qahramonni borligicha ko‘rsatib berishga urinishini kuzatgan eliotshunoslar “ingliz” xarakteri, qolaversa xaqiqiy ingliz millatiga xos bo‘lgan inglizlilik yaratilganligini ta’kidlashdi. Saylasning kamgapligi, yolg‘iz yashashi, atrofdagilar bilan ko‘pam muloqot qilavermasligidan qishloqdagilar unga odamovi to‘quvchi deb nom bergandilar. Qishloq hayoti manarasini to‘laqonli tasvirlashga uringan adibaning novatorligiga dastlab Barbara Xardi e’tibor qaratdi. Babara Xardi “Jorj Eliot asarlarini o‘qib” nomli avtobiografik asarida adiba novatorligi yangi

ovoz adabiyotda jaranglay boshlaganligini ko‘rsatganligini ta’kidlaydi[Hardy B.3:48]. Jorj Eliotning hayotni teran tasvirlashi orqali kitobxonda aniq tasavvur uyg‘ota olishini ingliz adabiyotshunosi Keyt Flint ham yuqori baholadi. Uning fikricha Jorj Eliotning hikoya qilish uslubi na opa singil Brontelarni va na Elizabet Gaskell yoxud u na Ch. Dikkens va na V.Tekkereyga o‘xshaydi[Flint K. 2:62]. Adibada har bir qahramonning qalbiga chuqur kirib borishi. Ularning xarakteridagi ko‘z ilg‘ashi murakkab bo‘lgan jihatlarni ko‘rsata olishi uning o‘ziga xosligini isbotlaydi. Saylas Marnerday boylikka sig‘inuvchi odamovi odam eshigi tagiga kelib qolgan kichkina qizchaga befarq bo‘la olmaganligini ko‘rsatib berishida uning ibrat olgulik jihati ham bo‘lganligini ko‘rsatib berishi yozuvchining teran fikrlashini namoyon qiladi. Saylas Marnerning yaxshi ota bo‘lganligini uning qizi Eppi bir necha bor ta’kidlaydi. Eppi hatto otasi o‘gay ekanligini eshitganida hatto ishonmaydi. Odamlarning otang odamovi deganida ham bu fikrga mutlaqo qo‘shilmaydi. Eppining fikricha qishloqdagi odamlar otasini yaxshi bilishmaydi. Axir odamovi odam kechalari qiziga nainki ertak va na qo‘shiq balki yaxshi ota bo‘la olmagan bo‘lar edi. Saylas bor mehrini qiziga berar va unga yaxshi ota bo‘lish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qilardi. Eppi voyaga yetgach uning haqiqiy otasi topilgach ham Eppi u bilan ketishga rozi bo‘lmaydi. Garchand otasi unga shohona hayot va kelajakda ledi bo‘lish imkonini hadya qilsa ham u Saylas Marnerdek otasidan voz kechmasligini va otasi yonida oddiy hayot kechirishni ma’qul ko‘radi. Jorj Eliotning romanda keng talqin qilingan ikki qarama qarshi obraz Saylas Marner va Jefri Kess dunyoqarashida boylik va mehr qudratini va uning insonlarga qay darajada ta’sir qilishini chuqur tasvirlagan. XIX asr viktorian ingliz jamiyatida ledi bo‘lish minglab qizlarning orzusi bo‘lganliginiva bu orzu jamiyat shakllantirgan mezonlar bilan o‘lchanar edi. Ledi bo‘lish uchun zodagon oila farzandi bo‘lishi, merosxo‘r bo‘lishi va yaxshi ta’lim olgan bo‘lishi talab etilardi. Bu mezonlarga o‘la javob bergan ingliz ledilarida chinakam mehr bo‘lganmikan degan savolga muallif o‘z asari orqali baralla javob beradi. Barbara Xardi adiba Jorj Eliot ijodini chuqur o‘rganar ekan adibani chinakam asr ovozi bo‘lganligini ochib berishga urinadi[Xardy B. 4:82]. Viktorian romanning asosi bo‘lgan oila kultini mehr rishtalari mustahkam bog‘lanishini va u ingliz jamiyatida Saylas Marner kabi insonlar tomonidan mehr bulog‘i bo‘la olishini Jorj Eliot jonli tasvirlashning uddasidan chiqa oldi.

Viktorian adiba Jorj Eliot asarlari jahon klassik durdona asarlar sifatida e’tirof etilgan. Adiba ijodining alohida tadqiq etilishi uning ijodi viktorian romanning turli jihatlari mavjud ekanligini namoyon qiladi va bu o‘z o‘rnida maxsus tadqiqotlar yaratishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eliot G. Silas Marner. Black Cat Publishing: London 2003. – R. 460.
2. Flint K. The Cambridge Companion to George Eliot. *CUP, 2001.* – R. 350.
3. Hardy B. Rarticularities: Readings n George Eliot. London: Peter Owen 1982. – R. 270.
4. Hardy B. The Novels of George Eliot: A Study in Form. London: Athlone Press, 1994. – R. 320.